International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 2)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQOBAT VA MONOPOLIYANING TURLARI VA KO‘RINISHLARI



Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi
Mamadaliyeva Gulsanam Ulug‘bek qizi, Alimqulova Ruxshona Rustam qizi
O‘zMUJF Iqtisodiyot(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Biz bu maqolada iqtisodiyotimzda katta o‘rin tutgan raqobat va monopaliyani o‘rganib chiqdik. Raqobat va monopolyaning jamiyat uchun afzalliklari va kamchiliklari, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishda raqobatning o’rni va uning salbiy tomonlari bormi? Monopoliyaning iqtisodiyotga foyda va zararlari, hamda monopoliyaga qarshi kurashish uchun hozirgi kunda qanday choralar ko’rilayotganligi haqida bilib olishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: raqobat, monopoliya, tarmoq va tarmoqlararo, sof monopoliya, erkin raqobat, narx va narxsiz raqobat, oligapoliya, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar.

Raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha sub’yektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat-bozor sub’yektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o‘zlarining iqtisodiy resurslarini, ya’ni kapital, tabiiy resurslar, ishchi kuchini yuqori narxlarda sotish uchun raqobatlashadilar. Raqobat iste’molchilar o‘rtasida ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya’ni xaridorlar har bir sarflangan pul birligi evaziga ko‘proq naflilikka ega bo‘lishga harakat qiladilar.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tartibga solish vazifasi-ishlab chiqarishni talab, ya’ni iste’molga muvofiqlashtirish maqsadida taklifga ta’sir o‘tkazishdan iborat. Aynan shu vazifa yordamida iqtisodiyotda taklifning talab orqali, ishlab chiqarish tarkibi va hajmining yakka tartibdagi va ijtimoiy ehtiyojlar orqali belgilanishiga erishiladi, ya’ni iqtisodiyot bozor qonunlari asosida tartibga solinadi;

- resurslarni joylashtirish vazifasi-ishlab chiqarish omillarini ular eng ko‘p samara beradigan korxona, hudud va mintaqalarga oqilona joylashtirish imkonini beradi;

- innovatsion vazifasi-fan-texnika taraqqiyoti yutuqlariga asoslanuvchi hamda bozor iqtisodiyoti sub’yektlarining rivojlanishini taqozo etuvchi turli ko‘rinishdagi yangiliklarning joriy etilishini anglatadi;

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

- moslashtirish vazifasi-korxonalarning ichki va tashqi muhit sharoitlariga ratsional tarzda moslashishiga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning shunchaki o‘zini-o‘zi saqlab, iqtisodiy jihatdan yashab qolishidan xo‘jalik faoliyati sohalarining kengayishiga o‘tishini bildiradi;

- taqsimlash vazifasi-ishlab chiqarilgan ne’matlar yalpi hajmi yalpi ichki mahsulotning iste’molchilar o‘rtasida taqsimlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazadi;

- nazorat qilish vazifasi-bozordagi ba’zi ishtirokchilarning boshqa bir ishtirokchilar ustidan monopolistik hukmronlik o‘rnatishiga yo‘l qo‘ymaslikka yo‘naltiriladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to‘rtta shakli alohida ajratilib ko‘rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliyadir.

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko‘p sonli korxonalar mavjud bo‘ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko‘plab sotuvchilar o‘zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo‘lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko‘payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo‘lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo‘lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to‘siqlar bo‘lmaydi.

Sof monopoliyada tarmoq bitta korxonadan iborat bo‘lishi sababli, u mavjud mahsulot va xizmatning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakkahukmronlik shakllanadi.

Monopoliya sharoitida firma narx ustidan sezilarli nazoratni amalga oshiradi. Buning sababi oddiy. U mahsulot va xizmatning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va taklifning umumiy hajmi ustidan nazorat qiladi.

Monopolistik raqobat o‘z ichiga ham monopoliya, ham raqobat unsurlarini oladi. Bunda tarmoqdagi bir turdagi mahsulotning o‘nlab ishlab chiqaruvchilari bir-birlari bilan qulay narx hamda ishlab chiqarish hajmiga erishish borasida raqobatlashadilar. Biroq, ayni vaqtda, har bir ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotini tabaqalashtirish, ya’ni shu turdagi boshqa mahsulotlardan qaysi bir jihati, sifat darajasi, shakli, qadoqlanishi, sotish sharoitlari va h.k. bo‘yicha farqlantirish orqali uning monopol ishlab chiqaruvchisiga aylanadi.

Hozirda turli darajadagi monopolistik tuzilmalar rivojlanib borishi bilan ular o‘rtasidagi raqobatning shakllari ham turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib bormoqda. Jumladan, turli monopollashuv darajasidagi tuzilmalar o‘rtasida mavjud bo‘lishiga ko‘ra quyidagi raqobat turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- monopollashmagan korxonalar o‘rtasidagi raqobat;

- monopoliyalar hamda monopolistik birlashmalarga kirmagan ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi raqobat;
- turli monopoliyalar o‘rtasidagi raqobat;
- monopolistik birlashmalar ichidagi raqobat.

O‘z miqyosiga ko‘ra raqobat ikki turga - tarmoq ichidagi va tarmoqlararo raqobatga bo‘linadi.

Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, qo‘shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o‘rtasida olib boriladi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta’minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo‘lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual qiymati bir xil bo‘lmaydi.

Tarmoq ichidagi raqobat tovarlarning ijtimoiy qiymatini, boshqacha aytganda, bozor qiymatini aniqlaydi va belgilaydi. Bu qiymat, odatda, o‘rtacha sharoitda ishlab chiqarilgan va muayyan tarmoq tovarlarining anchagina qismini tashkil etadigan tovarlarning qiymatiga mos keladi.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o‘rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo‘lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o‘tishiga sabab bo‘ladi. Yangi kapitallar ko‘proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko‘payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o‘zgaradi, tovarlarga bo‘lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko‘tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat ob’yektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qaerga sarflanganligidan qat’iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta’minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa kiritilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o‘rtacha foyda normasiga tenglashtiradi.

Oligopolistik tarmoq bir xil yoki tabaqalashgan mahsulot ishlab chiqarishi mumkin. Ko‘pchilik sanoat mahsulotlari: po‘lat, mis, alyuminiy, qo‘rg‘oshin, temir va shu kabilar-fizik ma’noda bir turdagi mahsulotlar hisoblanadi va oligopoliya sharoitida ishlab chiqariladi. Iste’molchilik tovarlari: avtomobillar, yuvish vositalari, sigaretlar, maishiy elektr buyumlari va shu kabilarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar tabaqalashagan oligopoliya hisoblanadi.

Xulosa

Raqobat bozor iqtisodiyotining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, u bir tomondan, ishlab chiqarish munosabati sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Raqobat ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlashga imkon yaratadi. Har qanday bozor va ishlab chiqarish sharoitida raqobat va monopoliyaga duch kelamiz. Shunday ekan biz tinimsiz harakat qilsak

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

ham o’zimiz uchun ham jamiyatimizga foydamiz tegadi. Raqobat bor joyda doim sifatli maxsulotlar chiqariladi va yana raqobat bor joyda doimo o’sish bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazaryasi darslik-T: nashriyot, 2020.
2. https:// arxiv.uz
3. B.Y. Xodiyev, Sh.SH.Shodmonov Iqtisodiyot nazaryasi (Darslik).- T: ‘‘Barkamol fayz media”, 2017, 784 bet.
4. Xursanaliyev, B. (2023). KICHIK VA YIRIK BIZNESNI BOSHQARISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI. QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 28-30.
5. ‘‘Raqobat va Monopoliya’’ - Muhammadjon Mirzayev, 2017 - bu kitobda raqobat va monopoliya mavzusiga bag‘ishlangan nazariy materiallar, dasturiy yondashuvlar va amaliy maslahatlar keltirilgan.
6. ‘‘Raqobat va Monopoliya’’ - Rustam Ruziyev, 2019 - bu asarda raqobat va monopoliya haqida nazariy tushunchalar, tadqiqotlar va qarorlar keltirilgan.
7. ‘‘Monopoliya va Raqobat’’ - Dilyor G‘aniyev, 2016 - bu kitobda monopoliya tizimi tahlili, raqobatning rivojlanishi uchun zaruratli qadriyatlar va boshqa muhim mavzular haqida ma‘lumotlar berilgan.
8. Ubaydullaeva V. MAHSULOT NARXINING DINAMIKASINI TUSHUNISH: NARXLARNING O'ZGARISHI ORTIDAGI MEXANIZMLARNI OCHISH //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 407-412.
9. Ubaydullayeva V., Bozorboyev D. 2020-2025-YILLARGA MO ‘LJALLANGAN O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BANK TIZIMINI ISLOH QILISH STRATEGIYASI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 82-87.
10. Ubaydullayeva V. RAQAMLASHTIRISH–YANGI O ‘ZBEKISTON RIVOJLANISHINING MUHIM “DRIVERI” //Science technology&Digital finance. – 2024. – T. 2. – №. 3. – C. 18-22.
11. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O ‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.
12. Убайдуллаева В. Digitization-an important “Driver” of the development of New Uzbekistan //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 173-176.
13. Ubaydullaeva V. UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA TA’LIMNING TEXNOLOGIYALARINI QO ‘LLASH MUAMMOLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 132-143.
14. Mamanov S., Ubaydullayeva V., Abduraxmonov M. YUQORI TARTIBLI XOSILA //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 104-110.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024